

SMTI vakillari KAMKA mintaqaviy forumida ishtirok etishdi



Joriy yilning 13-14 iyun kunlari Toshkentda "Markaziy Osiyo, Mo'g'uliston, Kavkaz va Afg'oniston" (KAMKA) mintaqaviy forumi bo'lib o'tdi. Bu galgi forum "KAMKA: umumiy manfaatlar, umumiy intilishlar" mavzusiga bag'ishlandi.



Ushbu tadbir KAMKA mintaqaviy tarmog'i, AQShning Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti, "Ramsfeld" jamg'armasi tashabbusi bilan tashkil etildi.

Tadbirda 80 dan ortiq ma'ruzachilar va ekspertlar, dunyoning 20 davlatidan 300 dan ortiq qatnashchilar, xalqaro tashkilot va institutlar vakillari ishtirok etishdi.



Ular orasida amerikalik iqtisodchi, "Laffer Associates" kompaniyasi bosh direktori A.Laffer, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki xalqaro maslahatchisi va Gruziya sobiq Bosh vaziri Georgiy Kvirikashvili, AQShning Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti raisi F.Starr aytib o'tish mumkin.

Forum davomida, mintaqaviy savdo, transport va tranzit, investitsiyalarni jalb qilish, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarining o'zaro iqtisodiy va biznes aloqalarini mustahkamlash, tadbirkorlik va innovatsiyalar, inson kapitali, ta'lim, turizmni rivojlantirish kabi masalalar muhokama qilindi.



Xalqaro forum doirasi, SMTI vakili B.Mustafayev ma'ruza qildi. Ekspert o'z ma'ruzasida Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Ta'kidlandiki, Afg'onistonni unga qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, transport va madaniy-gumanitar hamkorlikka keng jalb qilishga qaratilgan o'zaro harakatlar, ushbu mamlakatda tinchlik hamda savdo-iqtisodiy jihatdan yangi imkoniyatlarni ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

